

” Ҳар бир давлат хизматчиси ҳар куни ўзининг меҳнати билан эгаллаб турган лавозимига лойиқдигини исботлаши керак.

ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O‘zbekistonda hozirgi kunda ta’lim va yoshlar tarbiyasi sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamidrida jahon andazalariga mos, mustaqil fikrlaydigan, tadbirkor va ma’nan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadi mujassamdir. Shuningdek, bugungi global taraqqiyot davri yoshlarni fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishlarini, aniq maqsad qo‘ya olishlari va hayotga dadil kirisha olishlarini talab qilmoqda. Bunday barkamol avlodni tarbiyalash — nafaqat oila yoki o‘qituvchi, balki butun jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar aynan shunday sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Hozirgi islohotlarda ta’limning mazmuni va sifatini tubdan yangilash, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Davlat ta’lim standartlari asosida barkamol shaxs va malakali kadr tayyorlashga xizmat qiladigan o‘ziga xos strategiya yaratildi. Ushbu strategiyada yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish asosiy o‘rin egallaydi. Zero, azaldan xalqimiz uchun yoshlarni barkamol etib tarbiyalash eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan va bu borada ota-bobolarimiz katta ahamiyat berib kelganlari tarixiy manbalardan ma’lum.

Moddiy bilimlar bilan bir qatorda, yoshlarning psixologik dunyoqarashini shakllantirish va ruhiy barqarorligini ta’minlash ham juda muhimdir. Zamonaviy talaba faqat darsliklardagi bilimni o‘zlashtiribgina qolmay, balki jamoada muloqot qilish, mustaqil tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va barkamol etib voyaga yetkazish uchun uni insoniyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidan ajratmaslik lozim. Talaba yoshlar aynan oliy ta’lim davrida yangi ijtimoiy muhitga kirib, turli guruh va jamoalarga muloqotga kirishadi, o‘zini namoyon etadi va shaxsiy qiymatini anglay boshlaydi. Shu bois, talaba shaxsi shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish va ularni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya berish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan buyon yosh avlodni ham jismonan sog‘lom, ham ma’nan yetuk qilib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Ayniqsa, 2017—2021 yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarda amalga oshirilayotgan Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilandi. Jumladan, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, yoshlarda vatanparvarlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bir yilning o‘zida ta’lim tizimini isloh qilishga oid yetmishdan ortiq Farmon va qarorlarning qabul qilingani ham islohotlar ko‘lami qanchalik katta ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va unga

muvofiq qabul qilingan dasturlar asosida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimi yaratildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi: “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi doirasida yosh tadbirkorlarni moliyaviy rag‘batlantirish, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali iqtidorli yoshlarni chet ellarda o‘qitish, prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etish orqali iqtidorli o‘g‘il-qizlarni kamol toptirish kabi ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bu sa’y-harakatlar zamidrida har bir yigit-qizning o‘z salohiyatini to‘la namoyon etishi, bilim olish, kasb egallash va jamiyatda o‘z o‘rini topishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadi mujassamdir.

Yoshlar siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar ham talaba shaxsi kamolotiga bevosita daxldor. Masalan, yoshlarni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar qilib tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirish davlat dasturlarida qayd etilgan. Shu bilan birga, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, bandligini ta’minlash, jismonaniy tarbiya va sportga jalb qilish, zararli xulq-atvor va huquqbuzarliklarning oldini olish kabi vazifalar ham talaba yoshlar tarbiyasining ajralmas qismidir. Umuman olganda, ta’lim sohasidagi islohotlar va yoshlar siyosatidagi sa’y-harakatlar zamonaviy talabani har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Albatta, bu yuksak marralar amalga oshishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi. Psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari, shaxs rivojlanishiga oid ilmiy xulosalar ta’lim amaliyotiga keng joriy etilishi zarurligi ta’kidlanmoqda. Zero, pedagogika va psixologiya sohasidagi yangiliklardan samarali foydalanmasdan turib, bilimli va malakali, shu bilan birga mustahkam axloqiy asoslarga ega kadrlarni tayyorlash qiyin kechadi. Prezident tomonidan tasdiqlangan 2030 yilgacha Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ham talaba va o‘quvchilarning mas’uliyatli, mustaqil fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalanishi masalasiga alohida urg‘u berilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida esa yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishi uchun shart-sharoit yaratish davlatning burchi ekanini Konstitutsiya darajasiga ko‘tarildi.

Ta’lim sohasini isloh etish jarayonida nafaqat o‘quv dasturlari va moddiy baza, balki pedagog kadrlar tayyorlash tizimi ham

takomillashib bormoqda. Xususan, so‘nggi yillarda respublikamizda psixologiya yo‘nalishida kadrlar tayyorlash hajmi sezilarli oshirildi. Hozirgi kunda “Psixologiya” va “Pedagogika va psixologiya” mutaxassisliklari bo‘yicha qabul kvotalari yil sayin ko‘paymoqda. O‘rta umumta’lim maktablarida esa minglab psixolog-o‘qituvchilar faoliyat yuritib, o‘quvchilarning ruhiy holatini monitoring qilishga va maslahat berishga mas’ul etib tayinlandi. Bularning barchasi ta’lim jarayoniga psixologik xizmatni integratsiya qilishga, ya’ni har bir bola va talaba ruhiyati bilan ishlashga qaratilayapti.

Shu bilan birga, sohada yechimini kutayotgan masalalar ham yo‘q emas. Jumladan, turli ta’lim bosqichlarida faoliyat yuritayotgan psixolog kadrlar va tuzilmalar ko‘payayotganiga qaramay, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona tizimning mavjud emasligi psixologik xizmat samaradorligini tushirib kelmoqda. Maktab va kollejlardagi psixologlar, profilaktika inspektorlari hamda mahalla vakillarining hamkorlik mexanizmlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmagayotganligi ta’kidlanmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim tizimida psixologiya mutaxasssligi bo‘yicha yetuk amaliy psixologlarni tayyorlashga maxsus e’tibor talab etilmoqda. Ayni paytda bitiruvchilarning bilim doirasida umumiy nazariyaga ko‘proq yo‘naltirilgan bo‘lib, muayyan muammolar bo‘yicha tor ixtisoslashuv amaliyoti yetarlicha emasligi ta’kidlanmoqda. Ilmiy-pedagogik darajada ham mutaxassislar yetishmovchiligi seziladi, chunki psixologiya yo‘nalishida magistratura va doktoranturaga qabul sonlari hali kam, milliy psixologiya ilmiy maktabini shakllantirish jarayoni sust kechmoqda.

Psixologik xizmatning amaliyotdagi holatiga nazar tashlasak, aholiga, xususan yoshlarga sifatlil psixologik yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilayotganligi bilan bir qatorda, hali bu borada ko‘p ishlar qilish lozim. Jamiyatda yoshlar o‘rtasida uchrayotgan ba’zi muammolar — stress va tushkunlik holatlari, oilaviy nizolar, o‘ziga ishonchsizlik kabilar — aynan psixolog mutaxassislar yetishmasligi yoki ular faoliyati samaradorligining pastligi ortidan kelib chiqayotgani ma’lum. Shu sababli, har bir ta’lim muassasasida psixologik xizmatni kuchaytirish, talabalarning emotsional holatini vaqtida o‘rganib borish va tegishli profilaktik choralarni ko‘rish juda muhim.

Talabalar bilan ishlashda pedagog va psixologning hamkorligi ayni muddao hisoblanadi. Zero, pedagogika fani yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullansa-da, har bir yoshning individual ruhiy olamiga chuqur kirib borish, uni tushunib, qo‘llab-quvvatlashda psixologik yondashuv beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlar bilan ishlash ko‘limlari, maslahatchi dekan yordamchilari, psixologik maslahat markazlari tashkil etilayotgani kuzatilmoqda. Masalan, ayrim universitetlarda maxsus psixologik konsalting markazlari faoliyat boshladi, ular talabalarga stressni yengish, kasb tanlash, shaxsiy muammolarni hal etish borasida bepul maslahatlar bermoqda. Bu kabi ilg‘or tajribalarni barcha OTMlarda joriy etish talaba shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

O‘smirlik davridan katta hayotga qadam qo‘yayotgan talaba uchun oliy o‘quv yurtidagi ilk yillar juda katta o‘zgarishlar davridir. Yangi muhit, yangi jamoa, mustaqillikka intilish — bularning barchasi talabaning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillardir. Psixolog olimlar

ta’kidlashicha, talaba shaxsini uni o‘rab turgan shaxslararo munosabatlar tizimidan ajratib o‘rganish mumkin emas, chunki aynan munosabatlar jarayonida individ o‘zini shaxs sifatida namoyon etadi va o‘z-o‘ziga baho bera oladi. Demak, talabalarning guruhlardagi o‘rni, do‘stlar davrasidagi faolligi, ustozlar va maslakdoshlar bilan muloqoti — bularning har biri uning shaxsiy sifatlarini shakllantiruvchi muhim bo‘g‘inlardir.

Zamonaviy talabalarning umumiy psixologik xususiyatlarini tahlil etsak, bir qator qiziqarli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Bugungi talaba avlodi aksariyat hollarda texnologiyalar bilan oshno, axborotga boy muhitda o‘sgan, dunyoqarashi keng. Ular mustaqillikka intiladi, o‘z qadr-qimmatini his etadi. Shu bilan birga, yangi muhitga moslashish davrida ayrim yoshlarda turli ruhiy holatlar, hayojon, qo‘rquv, ishonchsizlik va boshqa holatlar kuzatilishi mumkin.

Aynan shu masalada olib borgan tadqiqotimiz natijalarini alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinli. Tadqiqot doirasida 1-kurs talabalarining qariyb 17 foizi yuqori darajada bezovtalik (tashvish) hissiga ega ekani aniqlandi. Shuningdek, birinchi kurslarda 23%ida frustratsiya (rejalar buzilishi yoki xohishlar amalga oshmay qolishidan kelib chiqadigan ruhiy jarohat) darajasi yuqori, 14%ida agressivlik kuchli, 15%ida psixologik rigidlik (moslashuvchanlikning pastligi) baland ekani kuzatildi. 24% talaba esa stressga bardoshlilik darajasi past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu shundan dalolat beradiki, har besh talabadan biri oliyoghdta ta’lim olishning dastlabki davrida sezilarli emotsional stress holatida ekan.

Keyingi kurslarda ma’lum bir moslashuv yuz beradi, biroq baribir 2-3 kurslarda ham o‘xshash muammolar saqlanib qolgan. Masalan, 3-kurs talabalari orasida bezovtalik yuqori darajada bo‘lganlar 23% ni, frustratsiyaga uchrayotganlar 27% ni, agressiv reaksiyalar ko‘rsatuvchilar 19% ni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, kurs oshgan sari ayrim ko‘rsatkichlarda o‘shish kuzatilmoqda (masalan, frustratsiya 1-kursda 23% bo‘lsa, 3-kursda 27% ga yetgan). Ushbu holatlar talabalarga emotsional barqarorlik to‘liq shakllanmaganini anglatadi va o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida talabalardagi bunday emotsional holatlarga nimalar sabab bo‘layotgani yuzasidan tahlil ham o‘tkazildi. Aniqlanishicha, aksariyat hollarda akademik yuklama va vaqtining taqchilligi muhim omil bo‘lmoqda. Ya’ni, talaba oldiga qo‘yiladigan o‘quv talabalarining ko‘pligi, muddatlarning qisqaligi, uyqu va hordiq uchun vaqt kamligi tashqi stress manbai sifatida namoyon bo‘ladl. Bundan tashqari, ayrim talabalarda shaxsiy hayotdagi muammolar (oilaviy mojalar, moliyaviy qiyinchiliklar va h.k.) ularning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan. Alohida holatlarda bezovtalik va xavotirning chuqurroq ildizi ham bor: masalan, o‘z-o‘zini anglashdagi krizis, kelajakka bo‘lgan noaniqlik hissi kabilar talabalarda ichki emotsional to‘qnashuvlarga olib keladi.

Ta’kidlash joizki, bunday salbiy emotsional holatlar uzoq davom etsa, dezdaptatsiya, ya’ni talabaning atrof-muhitga moslashuvda pasayish holati paydo bo‘lishi mumkin. Bezovtalikning doimiy yuqoriligi ayrim hollarda nevrozlarga ham sabab bo‘lishi ehtimoli borligi ta’kidlanadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish, har bir kursda talabalarning psixologik holatini monitoring qilish

va erta profilaktika choralarini ko‘rish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotda bunda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yo‘nalishlar sifatida bezovtalik va emotsional beqarorlik omillarini vaqtli aniqlash, talabalar bilan suhbatlar orqali ularning shaxsiy muammolarini bilib borish, o‘quv yuklamasi va vaqtni taqsimlashni to‘g‘ri tashkil qilish, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kabilarni tavsiya etamiz.

Shu o‘rinda, talaba shaxsini shakllantirishda o‘qituvchining o‘rni haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Oliyoghdta pedagog faqat ma’lumot beruvchi emas, balki tarbiyachi va namuna sifatida ishtirok etadi. Pedagogning shaxsiy fazilatlari, talabalarga bo‘lgan munosabati va guruhda yaratadigan psixologik muhiti talaba shaxsi rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajaradi. U dars jarayonining tashkilotchisi, bilim manbai, guruh rahbari va tarbiya ishlari yetakchisidir. Shu jihatdan, har bir o‘qituvchi o‘zining bilimi, madaniyati va axloqiy qiyofasi bilan talabalarga o‘rnak bo‘ladi.

Pedagogga jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan talablar ham kun sayin oshib bormoqda. Ta’kidlanishicha, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini, balki pedagogik va yosh psixologiyasini chuqur bilishi, metodik mahoratga ega bo‘lishi, talabalarning ichki olamini tushuna olishi shuni. Shuningdek, pedagogda bolalarga muhabbat, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik tuyg‘usi, sabr-toqat kabi fazilatlar bo‘lishi zarurligi qayd etiladi. Zero, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va kasbiy mahoratga ega ekani talabalarning kelgusida komil shaxs bo‘lib yetishishlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Psixologik tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘zi hurmat qiladigan va ishonadigan ustozga ega bo‘lsalar, o‘qish va shaxsiy rivojlanishda yuqori natijalarga erishadi. Demak, talaba shaxsini shakllantirishda pedagog shaxsi va uning ijobiy imidji kuchli psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida qisqacha bayon etilgan tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar shaxsining shakllanish jarayonini yaxshilash uchun ta’lim tizimida bir qator amaliy choralar zarur. Eng avvalo, oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish dardor. Tadqiqotdan ma’lum bo‘ldiki, talaba uchun birinchi kursda moslashuv davri eng tahlilali payt hisoblanadi, bu vaqtda ko‘plab yoshlar ruhiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishadi. Shu sababli, universitetlarda psixolog maslahatxonalari faoliyatini kuchaytirish, birinchi kurs talabalariga moslashuv bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish samara beradi.

Ikkinchidan, akademik guruh rahbarlari va tarbiya ishlari bo‘yicha xodimlari talabalarning holatini doimiy kuzatib borib, xavotirli belgi ko‘rinsa, zudlik bilan chora ko‘rishi zarur. Bu — o‘qishda orqada qolayotgan, do‘stlaridan uzilib qolgan yoki o‘zini yolg‘iz his etayotgan talabalarni erta aniqlash va ularga yordam berish deganidir. Bunda psixologlar bilan birga, tajribali ustozlar, kuratorlar ham jips hamkorlikda ish olib borsalar, samara oshadi.

Uchinchidan, ota-onalar va oila bilan aloqani kuchaytirish muhim. Tadqiqotda ba’zi yoshlardagi ruhiy muammolar oiladagi muhit bilan bog‘liq ekani aytiladi. Shuning uchun universitetlar ota-onalar bilan hamkorlikda talabaning rivojlanishini muntazam muhokama qilib borishi, kerak bo‘lsa, ota-onalarga ham psixologik maslahat berib turishi

mumkin. Bu uch burchak — talaba, ota-ona, universitet — o‘rtasidagi hamkorlik talaba shaxsiga ta’sir etuvchi barcha jihatlarni qamrab olishga yordam beradi.

Nihoyat, pedagogik jamoa o‘rtasida talabalar psixologiyasi bo‘yicha doimiy malaka oshirish ishlarini tashkil etish kerak. O‘qituvchilar zamonaviy psixologiya fanining yangiliklaridan xabardor bo‘lsalar, o‘z faoliyatlarida talabalar individual xislatlarini inobatga olish, ularni rag‘batlantirish yoki tushunmovchiliklarni bartaraf etishda samaraliroq usullarni qo‘llay oladi. Masalan, konfliktini hal etish psixologiyasi, motivatsiya berish texnologiyalari, emotsional intellekt kabi mavzularda treninglar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Talaba shaxsini shakllantirish uzluksiz jarayon. U nafaqat auditoriyadagi darslar, balki universitetning norasmiy muhiti, tengdoshlari bilan muloqoti, ustozlari bilan munosabatlari orqali amalga oshadi. Shu bois, ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit yaratish, har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlash katta ahamiyatga ega. Muallifning ilmiy tadqiqoti natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunda ilmiy asoslangan yondashuv muhim: talabalarning psixologik holatini muntazam o‘rganib borish, ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va shu asosda tavsiyalar ishlab chiqish kerak. Masalan, tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan ayrim tavsiyalar, jumladan, akademik litsey va kollejdan kelgan yoshlar uchun adaptatsiya dasturini yaratish, talabalarning kommunal turar joylardagi turmush sharoitini yaxshilash, kuratorlik institutlarini rivojlantirish va h.k. amaliyotga tatbiq etilisa, talaba yoshlar taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talaba shaxsining rivojlanishiga doir ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish va ularni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish — mamlakatimiz ta’lim sohasidagi islohotlarning muhim tarkibiy qismidir. Yoshlar bo‘yicha davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ham — intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlaydigan va barkamol shaxslarni voyaga yetkazish ekani barcha meyoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Bu ezuq maqsadga erishish yo‘lida oliy ta’lim muassasalari oldida katta mas’uliyat turibdi. Bir tomondan, yuqori malakali mutaxassis tayyorlash, ikkinchi tomondan esa ma’naviy yetuk, ruhan sog‘lom shaxsni rivojlantirish.

Mazkur masalalar yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotimiz talaba shaxsiga ta’lim jarayoni, ustozlar obrazlari, guruh ichidagi muhit, oila va hatto jamiyatdagi turli ta’sirlar majmuiy ravishda ta’sir etishini ko‘rsatadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun aynan shu omillarning birligini ta’minlash lozim. Aniqlangan muammolar, ayrim talabalardagi xavotir va stress holatlari, motivatsiyaning pastligi yoki agressivlik ko‘rinishlari o‘z vaqtida psixologik korreksiya va profilaktik ishlar orqali yumshatilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida talabalarning o‘qishdagi muvaffaqiyati va kelgusidagi professional kamolotiga ijobiy ta’sir qiladi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uni amalga oshiradigan talabalar avlodiga bog‘liq. Agar bizing talabalarimiz nafaqat bilimli, balki ruhan baquvvat, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega, kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlangan shaxslar bo‘lib kamol topsa, O‘zbekistonning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratilgan bo‘ladi. Shunday barkamol avlodni shakllantirish esa barchamiz, pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va jamoatchilikning birgalikdagi mas’uliyati va vazifasidir. Zero, har tomonlama yetuk avlod — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining garovidir.

Saodat GAYUPOVA,
Chirchik davlat pedagogika universiteti Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Инсон қадрини улуғлаш — юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир. Бу борада жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутади.

КўНГИЛНИ ҲАВОЛАНТИРИШ — САОДАТДИР

Кўпдан кўп тафсилотларни кўриб-кузатиб, анча йиллардан бери битта хулосага келганман: Деновда инсон учун қусур ҳисобланган ҳамма нарсани қилиш ва ҳаттоки ғоздай бўлиб юриш мумкин, аммо бу ерда адолатсизликни яъни умуминсоний қадриятлар мажмуасининг улгуси ўлароқ қарор топган ижтимоий мезонларни оёқости қилсангиз, чойхона иборалари билан айтганда, “оқ”ни “қора” ё “қора”ни “оқ” десангиз ва фаолиятингизни шу асосга курсангиз, деновликлар кечирмайдилар ва ўзлари ҳам гайри шуурий жазав билан бошингизга шундай кунларни соладиларки, қочгани жой тополмай қоласиз.

Тўғри, замон офатларининг салмоғига етиб бўлмайди — улар муборак ҳадисларда бирма-бир саналган ва улардан омон қолиш йўллари ҳам баён қилинган: Пайғамбаримиз Муҳаммад сололлоху алайҳи вассаламининг суннатларига амал

одамнинг ҳатто ичи ачийди! Имом Аъзам ҳазратлари нега бугуннинг ибораси билан айтганда Олий суд раислиги вазифасини қабул қилишдан кўра ўзини жиниликка солиб, зиндонда ётишни, у ерда калтакланишни аъло билди? Чунки, ул зот Аллоҳ-



риб, 350 беморга донорлик қилиб қон бериб ҳеч нарса бўлмагандай назардан четда жим туриш учун... одам қандай бўлиши керак? Бош табиб ўз қонини касалларига бериш... Ахир, бир тадбиркор кўчага бир туп қўчат экса, телевизорни ҳеч кимга бермайди, Юнус Уроқов тумандаги катта тизимида шунча ишлар қилса-ю, ҳеч нарса қилмагандай миқ этмай юрса... Фарзандларингизни ҳалол лўкма билан боқинг деган ҳадисларни энди энди ўқияпмиз. Ҳозир ҳам худди аввалги замонлардагидек катта-катта амалдорларнинг фарзандлари ноқобил чиққанига ҳайрон қолиб юрамиз.

радда ҳам йўқ, эканми!” деган экан.

Яқиндаги бир ҳолатни ҳам айтиб ўтиш лозимга ўхшайди. Туман ташкилот раҳбарларидан бири деновлик бир йигит билан бир хил костюшимда давра айланиб юрипти. Ўтирганлардан бири: кўряпсизми, шу йигит эртага катта бўлади. Не кўз билан кўрайки бир ҳафта ўтар-ўтмас ўша йигит катта ишга ўтиб кетди.

Мен кўп йиллардан бери радио эшитаман.Ишхонамда радио бор. Мен сизга айтсам мусиқа тинглаш масаласида баъзилардек эмасман. Отажон Худойшукуров айтган “Хоразм сеғоҳи”, “Катта суворалар”ни тинлаш учун ҳамма ишларимни йиғиштириб кўяман. Дилнура Қодиржонованинг авжлари ҳам мени ҳайратга солади. Мен айтаман: энди бу авжларга ҳеч кимнинг қўли етмайди. Қабринг нурга тўлгур Дилнура мумтоз кўшиқлар ижросини шу даражада баландга кўтариб ташладики, унинг пойида ҳали кўп йиллар мингирлаб юрсак керак. Сизга бир гапни айтийинми — қаб-

ганлиги бизга манбалардан маълумку!

Мен айтаман: маромига етказиб ижро этилган мумтоз ашула аслида зикрдир! Шунинг учун унга дахл қилиш, ўзининг ҳолидан беҳабар қўл уриш, унинг ўзига... мослаштириб ижро этиш халқнинг юрагига буров солиш билан баробар гуноҳдир, гумроҳликдир!

Яхши гапнинг, яхши сўзнинг, яхши ашуланинг ғамхўри, ичқуяри, бор — муҳлислари, халқ! Башарият тарихи кўз кўриб, қулоқ эшитмаган юксалишлар кўршовида. Бу ҳолатлар осойишталигимизни таъминлаб беради, дегани эмас. Аксинча, мавжуд ҳаракатдаги тизим фаолиятига турли йўллар билан раҳна солишга уринишлар бўлиши шубҳасизлигини англатади. Биз истаймизми — йўқми бу кўҳна олам шундай яралган. Она тупроғимиз ўз-ўзидан обод бўлмаган. Биринчи Президентимиз улўғ минбарлардан туриб, ҳаммани бир ёқадан бош чиқариб, олдинга талпинишга чорлар эди. Одамлар ишончини қозониб, уларнинг қора қозони қайнаб туришини таъминлашнинг ўзи улкан бахт эди. Ҳозир ҳам қийинчилик дамларини ёдга олсам, бадамин сесканиб кетади. Боиси, кўпчиликнинг кейинги тақдир қандай кечар экан, деган ўй билан яшаганман. Оғир синовли йиллар даврида ҳокимият тизимида оддий ҳодим бўлиб ишлаш ҳам кишига жиддий маъсулият юқларди. Бироқ менга одамларнинг тақдир билан боғлиқ маъсулиятли вазифа ишониб топширилган эди-да. “Мана сенга тўкин ҳаёт, мана мақсадинг сари ойдин йўл, қани марҳамат”. демаган ҳеч ким. Ҳаммаси бошидан бошланган: эл дардига малҳам бўлиш учун бор имкондан фойдаланишга ҳаракат қилинган эди. Бу гапларни шунчаки айтиб бўлмайди. Қаҳатчилик — нақд жаҳаннам оловини пуркарди. Йўқчиликнинг нафаси бош суқмаган остона қолмаганди. Шунда халқ жипс-лашди, қўлни-қўлга бериб, биргаликда манзил томон ҳаракат қилинди. Таҳликали кезларда мен Ватаним учун нима қилишим керак, деган ўй барчанинг қалбига муҳрланди. Айни ушбу паллаларда халқнинг матонати яна бир қарра кўриқдан ўтди. Ха, бу гаплар Ватан учун жоним фидо, деган ҳар бир киши учун ибратдир. Унутмаслик лозимки, Мустақиллик декларацияси Ўзбекистондек аҳолиси турмуш даражаси ниҳоятда паст бўлган давлат бошига не-не азобу кўргиликларни солиши муқаррар бир вазиятда Қодиржоноваларнинг авхларини одамни кўнглини тоғдай кўтаради! “Кўтаради” деган ибора жуда ғариб бундай кўшиқларни эшитган одам ҳаволанади: ана шу ибора тўғри! Кўнглини ҳаволантириш эса — саодатдир: мен ҳар сафар “Лисон ут тайр”-нинг охирига борганда шундай кайфиятга дуч келаман. Вужудимга аллақандай куч қуйилиб кела бошлайди. Кўнглининг ҳаволанишида эса гап кўп: қўлтигингиздан гўёки қанот ўсиб чиқади, одим отганингизда оёгингиз ердан узилади, осмон-фалакларга учгингиз келаверади. Қайсидир йили Зайниддин Зидан сардорлигида фаранг футболчилари жаҳон чемпиони бўлишди: халқ бундан ҳаволаниб кетди ва мамлакат бўйича меҳнат унумдорлиги йиғирма фоизга ўсди! Ахир, Фаробий ҳазратлари “Наврўзи олам” билан кун сайин юрт фироғида тонглари сарғайиб бораётган тутқунларни давола-



қилмоқ! О-о, бу — осон эканми! Имом Аъзам Ҳазратлари қози бўлмаслик учун ўзини жиниликка солган ва тақлифни рад этганлиги учун зиндонбанд қилинган. Худди Имом Аъзам ҳазратлари замонида қози бўлмоқ учун пора бермоққа тайёрмиз! Бу тафсилотларни айтиш билан бундан минг йиллар илгари ҳамма Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг суннатларига маҳкам ёпишган эди, ҳозир ундай эмас, ҳамма имонсиз бўлиб кетди деган фикрли мутлақо айтмоқчи эмасман. Одамзод ҳозир қандай бўлса минг йил илгари ҳам табиятан худди шундай эди: порахўрлик, зинкорлик, харомхўрлик, адолатсизлик... эҳтиёжга яраша, фақат АҚШнинг долларлари бўлмаган ҳолос. Чунки, у замонларда қоғоз пуллар бўлмаганидан ҳозир ҳатто олиб юриш тақиқланган тангаларни... одамлар чарм хал-тачаларга солиб, олиб юришган, ҳожатини битирмоқ учун ана шу олтин тангаларни ҳаражат қилишган —

нинг қаҳридан, жаҳаннамнинг оташидан бениҳоя даражада кўп кўрқар эдилар. Ана шундай муборак одамлар борлиги учун ҳам тоғлар жойида турипти, акс ҳолда улар қум зарралари сингари осмон-фалақда учиб юрар эдилар! Таъмасиз қилинган хизмат одамнинг кўксини тоғдай кўтаради деган гапларни уламоларнинг китобларида ўқиганмиз. Агар одамнинг кўкси баланд бўлса, дуч келган одам унга оёқ кўёлмас экан-да, — деновлик уddaбу-рорлар Юнус Уроқовни йўриғига юргизолмаганигининг сабаби ҳам, балки шундан-дир. Денов тиббиёт тизимида олиб борилаётган самарали ишларни санаб адоғига етиб бўлмайди. Аммо бу ишлар жараёнида Юнус Уроқовнинг иштироки кўзга ташланмайди — шундай кўп ишларни, энг муҳими 3,5 мингга яқин киши тизимда ишлайдиган ташкилотдаги аҳиллик, кўтарингки кайфият, фидокорлик каби ишларни амалга оши-

Харом мол, агар у танавул этилса, кўнглини ўлдириб, юзни қора, имонни пароканда қилишга иккор бўлмасликнинг мутлақо илोजи йўқ. Деновда пул дарё бўлиб оқади, фақат кўзга кўринмайди, ҳолос. Бу ерда ибора-фақат туманнинг, балки вилоятнинг об-ҳавосини белгилайдиган шундай пулдорлар борки, ХХ асрда “мен-ман” деган туман “оға”ларини “ўзиники” қилиб олган. Хонаси келди, ХХ асрнинг етимишинчи йилларидан бир ривоят қилиб берайин: туман оғаси шаҳар савдо ташкилотининг раҳбарини ҳузурига чақириб фалон бичимдаги, фалон тусли 2 жуфт костюм топинг, деб амр қилипти. Бир ҳафта ўн кунда бюротма ҳозир бўлавермагач, зудлик билан ҳалиги раҳбарни чақириб: “Нега йўқ бўлиб кетдингиз?” депти. “Э, фалончи ака одамларимиз Душанбега ҳам бориб келди, сиз айтган костюм ҳеч жойда йўқ” деса, салтанат соҳиби “Ленинг-

ринг нурга тўлгур Отажон Худойшукуровнинг, Дилнура Қодиржоноваларнинг авхларини одамни кўнглини тоғдай кўтаради! “Кўтаради” деган ибора жуда ғариб бундай кўшиқларни эшитган одам ҳаволанади: ана шу ибора тўғри! Кўнглини ҳаволантириш эса — саодатдир: мен ҳар сафар “Лисон ут тайр”-нинг охирига борганда шундай кайфиятга дуч келаман. Вужудимга аллақандай куч қуйилиб кела бошлайди. Кўнглининг ҳаволанишида эса гап кўп: қўлтигингиздан гўёки қанот ўсиб чиқади, одим отганингизда оёгингиз ердан узилади, осмон-фалакларга учгингиз келаверади. Қайсидир йили Зайниддин Зидан сардорлигида фаранг футболчилари жаҳон чемпиони бўлишди: халқ бундан ҳаволаниб кетди ва мамлакат бўйича меҳнат унумдорлиги йиғирма фоизга ўсди! Ахир, Фаробий ҳазратлари “Наврўзи олам” билан кун сайин юрт фироғида тонглари сарғайиб бораётган тутқунларни давола-

2023-yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan “Art-studio” markazi san'at muhitida bo'lajak ijodkor pedagoglarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Markazda talabalar va mutaxassis o'qituvchilar birgalikda ijodiy loyihalar ustida ishlaydi. Markazning faoliyati yoshlarning bilim va mahoratini oshirishga hamda ularni kelajakdagi kasb-hunarga tayyorlashga qaratilgan. Boshqacha aytganda, Art-studio talabalarga faqat texnika va nazariy bilim bermaydi, balki ularni ilmiy-ijodiy muhitda tarbiyalaydi.

Markazda talabalar global fikrlashga, innovatsion qarashlarga ega bo'lish va yuqori malakali kadrlar sirasiga kirishga tayyorlanadi. Markazda o'tadigan mashg'ulotlarda nafaqat tasviriy san'at to'garaklari, balki zamonaviy kompyuter grafikasi bo'yicha ham amaliy mashg'ulotlar tashkil etilgan. Bu talabalarni raqobatbardosh bozorga tayyorlashga yordam beradi. Tajribali professor-o'qituvchilar iqtidorli talabalar hamda san'atga qiziquvchi o'quvchilar hamkorligida har bir ishtirokchi o'z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha zarur sharoit yaratiladi. Ustozlar doimiy ravishda talabalar bilan individual ishlashadi, bundan ibomlangan talabalar o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashadi. Shu tarzda, ushbu ijodiy markazda o'qish — bu nafaqat san'atni, balki kelajak avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi jarayonga aylanadi.

Masalan, bir talaba Art-studioga ilk bor kelganida bolalarga o'rgatishda qo'rqqoqlik va noaniqlik his qilardi. Biz ustozlar sabr bilan ularni rag'batlantirib motivatsiya ulashamiz. Shu yo'l bilan talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi va ijodkorlikka bo'lgan muhabbati kuchayadi. Amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar talabalarga hayotda ham yordam beradi. Ular bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning qanday foydali ekanini sezadi. O'zlarining yaratuvchan g'oyalari bilan doimiy shug'ullanib, yoshlar kundalik hayotda ham muammolarni ijodiy yondashuv bilan etishni o'rganadi.

Тоштемир ТУРДИЕВ,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими,
Денов туман Маънавият ва маърифат бўлими раҳбари.

IJODKOR PEDAGOG – KELAJAK TA'LIMINING POYDEVORI

Kelajak avlodni yuksak ma'naviyatli va ijodkor pedagoglar tayyorlaydi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim ijodkor fikrlovchi o'qituvchilarni tarbiyalashga katta ahamiyat bermogda. Ustozlarning ijodiy yondashuvi va yangi g'oyalari o'quvchilarga ishonch va umid bag'ishlab, ularga murakkab masalalarni ham ijodkorlik bilan hal etishni o'rgatadi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakultetida tashkil etilgan “Art-studio” o'quv-ijodiy markazi aynan shunday ijodkor pedagoglarni tayyorlashga hissa qo'shmoqda.



2023-yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan “Art-studio” markazi san'at muhitida bo'lajak ijodkor pedagoglarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Markazda talabalar va mutaxassis o'qituvchilar birgalikda ijodiy loyihalar ustida ishlaydi. Markazning faoliyati yoshlarning bilim va mahoratini oshirishga hamda ularni kelajakdagi kasb-hunarga tayyorlashga qaratilgan. Boshqacha aytganda, Art-studio talabalarga faqat texnika va nazariy bilim bermaydi, balki ularni ilmiy-ijodiy muhitda tarbiyalaydi.

Markazda talabalar global fikrlashga, innovatsion qarashlarga ega bo'lish va yuqori malakali kadrlar sirasiga kirishga tayyorlanadi. Markazda o'tadigan mashg'ulotlarda nafaqat tasviriy san'at to'garaklari, balki zamonaviy kompyuter grafikasi bo'yicha ham amaliy mashg'ulotlar tashkil etilgan. Bu talabalarni raqobatbardosh bozorga tayyorlashga yordam beradi. Tajribali professor-o'qituvchilar iqtidorli talabalar hamda san'atga qiziquvchi o'quvchilar hamkorligida har bir ishtirokchi o'z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha zarur sharoit yaratiladi. Ustozlar doimiy ravishda talabalar bilan individual ishlashadi, bundan ibomlangan talabalar o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashadi. Shu tarzda, ushbu ijodiy markazda o'qish — bu nafaqat san'atni, balki kelajak avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi jarayonga aylanadi.

Masalan, bir talaba Art-studioga ilk bor kelganida bolalarga o'rgatishda qo'rqqoqlik va noaniqlik his qilardi. Biz ustozlar sabr bilan ularni rag'batlantirib motivatsiya ulashamiz. Shu yo'l bilan talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi va ijodkorlikka bo'lgan muhabbati kuchayadi. Amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar talabalarga hayotda ham yordam beradi. Ular bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning qanday foydali ekanini sezadi. O'zlarining yaratuvchan g'oyalari bilan doimiy shug'ullanib, yoshlar kundalik hayotda ham muammolarni ijodiy yondashuv bilan etishni o'rganadi.

Buning natijasida, bo'lajak pedagog va dizaynerlar kelajakda nafaqat san'atda, balki hayotda ham yetakchilarga aylanishadi.

Ijodkor pedagog zamonaviy ta'limning eng muhim poydevoridir. Ustoz va shogird o'rtasidagi ishonch hamda o'zaro hurmatga asoslangan iliq munosabatlar ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etadi. Chirchiq shahridagi Art-studio ijodiy markazi misolida ko'rinib turibdiki, bunday pedagoglar nafaqat hunar o'rgatadi, balki yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularga ruhiy kuch beradi.

Ijodkor o'qituvchilar talabalar qalbida rahbarlik salohiyatini va jamoaviy ishlash ruhini uyg'ota oladi. Zamonaviy ta'lim tizimining kelajagi esa aynan mana shunday ijodkor pedagoglarga bog'liq. San'at va ijodiy g'oyalarni muhitida shakllangan yoshlar kelajakda nafaqat o'qituvchi, balki olim, rassom, rahbar sifatida ham muvaffaqiyat qozonadi. Art-studioda tarbiyalangan bo'lajak o'qituvchilar orqali yaratilayotgan pedagogik innovatsiyalar, albatta, yurtimiz ta'limiga yangi nafas olib kiradi. Shu bois “Ijodkor pedagog — kelajak ta'limining poydevori” g'oyasi qanchalik ahamiyatli ekanligi yana bir bor oydinlashadi.

Qisqa muddat ichida markaz faoliyati yoshlarga xalqaro maydonda ham muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratib berdi. Talabalar ko'pincha universitetlararo yoki xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etib, o'zlarining iste'dodini sinab ko'radi. Bu esa ularni yanada ruhlantiradi va motivatsiyasini mustahkamlaydi. Umuman olganda, Art-studio markazida olib borilayotgan ishlar yoshlar hayotiga ijobiy o'zgarishlar olib kiradi. Bu markaz ta'lim va tarbiya jarayonida ijodkor ustozlar ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Laylo RAJABOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va dizayn kafedrası o'qituvchisi
O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi.